Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligi va barqaror rivojlanishi ularning tashkiliy tuzilmasi, moliyaviy salohiyati hamda strategik boshqaruv qarorlariga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, globallashtirish va iqtisodiy integratsiya jarayonlari jadallashgan hozirgi davrda biznes birlashuvlari, jumladan korxonalarni qo'shib yuborish va qo'shib olish (mergers and acquisitions – M&A) jarayonlari iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayonlar orqali resurslar konsentratsiyasi kuchayadi, moliyaviy barqarorlik mustahkamlanadi hamda raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari kengayadi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiyl mulk va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, davlat aktivlarini xususiylashtirish hamda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida iqtisodiy konsentratsiya bilan bog'liq bitimlar soni va ko'lamini ortib, biznes birlashuvlariga bo'lgan ehtiyoj va amaliy qiziqish sezilarli darajada kuchaymoqda. Bunday sharoitda M&A jarayonlarini nafaqat iqtisodiy va tashkiliy jihatdan, balki ularning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishi nuqtayi nazaridan ham chuqur ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xususan, biznes birlashuvlari natijasida yuzaga keladigan gudvill va xariddan kelgan foyda tushunchalari moliyaviy hisobotning haqqoniyligi va ishonchligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarida ushbu kategoriyalar aniq tartibga solingan bo'lsa-da, milliy amaliyotda ularni tan olish, baholash va hisobda aks ettirishda muayyan uslubiy bo'shliqlar mavjud. Bu holat korxonalar moliyaviy natijalarining to'liq va real aks ettirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu munosabat bilan mazkur maqolada korxonalarni qo'shib yuborish va qo'shib olish jarayonlarining iqtisodiy mohiyati, ularni hisob va hisobotda aks ettirish masalalari, shuningdek gudvill va xariddan kelgan foydani xalqaro standartlar asosida baholashning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalari milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro talablarga uyg'unlashtirish, hisobot shaffofligini oshirish va investitsion muhitni mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biznes birlashuvlari, xususan korxonalarni qo'shib yuborish va qo'shib olish jarayonlari hamda ularning moliyaviy hisobotda aks ettirilishi masalalari iqtisodiy va buxgalteriya hisobi nazariyasida keng tadqiq etilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning nazariy asoslari, iqtisodiy samaradorligi va hisob metodologiyasi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli konseptual yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Biznes birlashuvlarining iqtisodiy mohiyati va bozor samaradorligiga ta'siri masalalari dastlab korporativ moliya nazariyasi doirasida o'rganilgan. Michael C. Jensen va Richard S. Ruback tadqiqotlarida M&A bitimlari orqali resurslarni qayta taqsimlash, agentlik xarajatlarini kamaytirish va bozor qiymatini oshirish mexanizmlari asoslab berilgan. Ularning ilmiy xulosalariga ko'ra, muvaffaqiyatli biznes birlashuvi kompaniya qiymatining oshishiga olib keladi va bu jarayon moliyaviy hisobotda to'g'ri aks ettirilishi zarur.

Biznes birlashuvlarining strategik va moliyaviy jihatlari Patrick A. Gaughan hamda Sherman J. DePamphilis asarlarida atroflicha tahlil qilingan. Ushbu mualliflar qo'shib olish jarayonlarida aktivlar va majburiyatlarni baholash, sinergiya effekti va bitimdan kutilayotgan iqtisodiy foydaning aniqlanishiga alohida e'tibor qaratadilar. Ularning fikricha, moliyaviy hisobotda adolatli qiymat konsepsiyasini qo'llash investorlar uchun eng muhim axborot manbai hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan biznes birlashuvlari masalasi, ayniqsa gudvill va xariddan kelgan foydani tan olish va baholash muammolari Paul M. Healy va Krishna G. Palepu tadqiqotlarida chuqur yoritilgan. Mualliflar 1990-yillar oxiri va 2000-yillar boshida amalga oshirilgan yirik M&A bitimlari tahlili asosida gudvillning kompaniya kelajakdagi daromadlariga bog'liqligini asoslab bergan. Ularning xulosalariga ko'ra, gudvill noto'g'ri baholangan taqdirda moliyaviy hisobotning ishonchligi sezilarli darajada pasayadi.

Gudvillni hisobda aks ettirish va amortizatsiya qilish masalalari Raymond J. Ball va Ross L. Watts ilmiy ishlari orqali rivojlantirilgan. Ular xalqaro va milliy standartlar o'rtasidagi farqlarni tahlil qilib, adolatli qiymat asosidagi baholashning ustunliklarini nazariy jihatdan asoslab bergan. Aynan shu tadqiqotlar natijasida keyinchalik MHXS 3 "Biznes birlashuvlari" standartida gudvillni amortizatsiya qilmasdan, uning qadrsizlanishini testdan o'tkazish konsepsiyasi joriy etilgan.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida biznes birlashuvlarini hisobga olish masalalari International Accounting Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlarda batafsil tartibga solingan. MHXS 3, MHXS 10 va BHXS 27 standartlari aktivlar va majburiyatlarni tan olish, baholash hamda konsolidatsiyalashgan hisobotni tuzishning yagona konseptual asoslarini belgilab beradi. Ushbu standartlar ilmiy adabiyotlarda Barry J. Epstein va Eva K. Jermakowicz tomonidan izohlangan va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

O'zbekiston va postsovet hududida biznes birlashuvlari hisobi masalalari V.F. Paliy, Ya.V. Sokolov hamda mahalliy iqtisodchi va buxgalter olimlar tadqiqotlarida yoritilgan. Ularning ishlarida milliy buxgalteriya hisobining



xususiyatlari, qayta tashkil etish jarayonlarida hisob yozuvlarini yuritish va tugatish balanslarini shakllantirish muammolari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar milliy amaliyotda xalqaro standartlarga moslashuv zarurligini asoslab beradi.


Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar biznes birlashuvlari jarayonlarini hisobda aks ettirishda adolatli qiymat, shaffoflik va taqqoslanuvchanlik tamoyillariga qat'iy rioya etish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, milliy buxgalteriya hisobi tizimida gudvill va xariddan kelgan foydani hisobga olish mexanizmlarini yanada aniqlashtirish, xalqaro tajriba asosida uslubiy jihatdan takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro va milliy moliyaviy hisobot standartlari, rasmiy statistik manbalar hamda korxonalarning ochiq moliyaviy hisobotlari asosida to'plandi. Olingan ma'lumotlar taqqoslama, tizimli va mantiqiy tahlil usullari orqali o'rganilib, biznes birlashuvlari jarayonlarining moliyaviy natijalarga ta'siri umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida iqtisodiyotni tarkibiy isloh qilish, bozor mexanizmlarini chuqur joriy etish hamda xususiy mulk va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish, uning global iqtisodiy makonga integratsiyalashuvini ta'minlash va xalqaro raqobatbardoshligini oshirish sharoitida korxonalar faoliyati samaradorligini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning strategik o'sishi va barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan muhim iqtisodiy jarayonlardan biri biznes birlashuvi hisoblanadi. Biznes birlashuvi turli xo'jalik subyektlarining resurslari, kapitallari va boshqaruv salohiyatini birlashtirish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi. Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy liberallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va korporativ boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar biznes birlashuvlarining faol rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Bunday jarayonlar korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, iqtisodiy masshtab samarasini yuzaga keltiradi hamda investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Jahon bo'yicha M&A (birlashuv va qo'shib olish) bozori statistik ma'lumotlari (2015–2025)

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, jahon iqtisodiyotida biznes birlashuvlari va qo'shib olish (M&A — mergers and acquisitions) jarayonlari so'nggi o'n yillikda iqtisodiy integratsiya va kapital bozori faolligida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. M&A operatsiyalari yirik transmilliy korporatsiyalar tomonidan amalga oshiriladi va ular global iqtisodiy rivojlanish, investitsiya oqimi hamda raqobat muhitining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. 2015-yildan boshlab jahonda birlashuv va qo'shib olish operatsiyalarining umumiy qiymati taxminan 3,8 trillion AQSH dollarini tashkil etgan. Bu davrda bozordagi faollik asosan energetika, moliya va texnologiya sohaslarida jadal kechgan.



2016-yilda ushbu ko'rsatkich 3,5 trillion dollarga pasaygan bo'lib, bunga Buyuk Britaniyaning Brexit jarayonlari hamda AQSHdagi siyosiy o'zgarishlar ta'sir ko'rsatgan. 2017–2018-yillarda jahon M&A bozorida o'sish kuzatilgan. Xususan, 2017-yilda umumiy qiymat 3,7 trillion dollarni, 2018-yilda esa 4,0 trillion dollarni tashkil etgan. Bu yillarda Yevropa va Amerika bozorlarida yirik texnologik birlashuvlar, shuningdek, farmatsevtika va moliyaviy xizmatlar sohalarida faollik yuqori bo'lgan.

2019-yilda bozor biroz pasayib, operatsiyalar qiymati 3,9 trillion dollar atrofida shakllangan. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa Osiyo mintaqasida ichki kapital qo'shilishlari va birlashuvlar soni ko'paygan. 2020-yilda pandemiya ta'siri natijasida global iqtisodiy faollik pasayib, M&A bozorida ham jiddiy inqiroz kuzatilgan. Ushbu yilda operatsiyalar qiymati 2,8 trillion dollarga tushgan. Bu oxirgi 10 yillikdagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lgan (1-jadval).

1-jadval. 2015–2025-yillar davomida jahonda amalga oshirilgan biznes birlashuvlari va qo'shib olish (M&A) operatsiyalarining umumiy qiymati¹

Yil	M&A qiymati (trln AQSH dollari)
2015	3.8
2016	3.5
2017	3.7
2018	4.0
2019	3.9
2020	2.8
2021	5.1
2022	4.5
2023	3.2
2024	3.4
2025 (9 oylik ma'lumot)	1.94

Ma'lumotlar xalqaro manbalar asosida tuzilgan bo'lib, bozor tendensiyalarining yillik dinamikasini ifodalaydi.² Olib borilgan tadqiqotlardan xulosa etish mumkinki, O'zbekistonda korxonalarni qo'shib yuborish va qo'shib olish jarayonlari (M&A) so'nggi besh yil ichida iqtisodiy faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Hukumat tomonidan iqtisodiyotni liberallashtirish, xususi sektor ulushini oshirish va davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlari faollashgani sababli iqtisodiy konsentratsiya bilan bog'liq bitimlar soni va qiymati yil sayin ortib bormoqda.

Birinchidan, 2021–2022-yillarda M&A (mergers and acquisitions) faoliyati haqidagi ma'lumotlar ochiq manbalarda cheklangan bo'lgan bo'lsa-da, 2023-yildan boshlab Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya etish qo'mitasi tomonidan ushbu jarayonlar bo'yicha tizimli hisobot yuritilishi boshlangan. Bu O'zbekistonda iqtisodiy konsentratsiyani nazorat etish instituti amalda shakllanayotganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, 2023-yilda M&A bo'yicha 12 ta murojaatdan 11 tasiga oldindan rozilik berilgani, 2024-yilda esa 139 ta ariza va 18 trln so'mlik bitimlar amalga oshirilgani ushbu bozorning kengayib borayotganini isbotlaydi. 2025-yilning birinchi yarmida 52 ta ariza qabul qilinib, 43 tasi ma'qullangani bu tendensiyaning barqaror davom etayotganini anglatadi.

Uchinchidan, amalga oshirilgan bitimlarning aksar qismi sanoat, savdo, moliya, turizm va axborot texnologiyalari sohalarida to'plangan bo'lib, bu sohalarida raqobat muhitining tabiiy kuchayishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, chet el investorlari ishtirokidagi bitimlar ulushi ham ortmoqda: 2023-yilda bitimlar qiymatining 51,2 foizi xorijiy sarmoyadorlarga to'g'ri kelgan.

To'rtinchidan, xalqaro amaliyot bilan taqqoslaganda, O'zbekistondagi M&A bozori hali shakllanish bosqichida bo'lsa-da, davlat tomonidan iqtisodiy konsentratsiyani tartibga solish, xususan, monopoliyaga qarshi nazoratning kuchayishi, milliy iqtisodiyotning ochiqligi va bozor mexanizmlarining kengayishi bilan M&A faoliyatining institutsional rivojlanishi ta'minlanmoqda.

Beshinchidan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, M&A bitimlari orqali iqtisodiy samaradorlik va bozor raqobatbardoshligi oshmoqda. Qo'shib yuborish va qo'shib olish jarayonlari orqali moliyaviy samaradorlik, resurslar konsentratsiyasi, texnologik yangilanish va boshqaruv tizimini optimallashtirish imkoniyatlari

1 McKinsey & Company: Global M&A Trends Report (2024–2025)ning ochik ma'lumotlar bazasidan olindi

2 McKinsey & Company (2025), Boston Consulting Group (BCG, 2025), IMAA Institute ma'lumotlari asosida tuzildi.



kengaymoqda. Shu sababli ushbu jarayonlarni xalqaro standartlar asosida hisob va hisobotda aks ettirish, gudvill va xariddan kelgan foydani to'g'ri baholash hamda adolatli qiymat konsepsiyasini milliy amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, investitsion jozibadorlik Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida ichki va tashqi investorlar uchun qulay, shaffof hamda ishonchli ishbilarmonlik muhitini shakllantirishning muhim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, biznes birlashuvi jarayonlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularning moliyaviy natijalarga, korporativ boshqaruv tizimiga va investitsiya muhitiga ta'sirini baholash mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Biznes birlashuvi natijasida iqtisodiyotda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi:

1. Iqtisodiy resurslarning konsentratsiyasi. Kichik va o'rta korxonalarning birlashuvi orqali moliyaviy va ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi;
2. Kapital bozorlariga kirish imkoniyatlarining kengayishi. Birlashgan kompaniyalar xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik etish imkoniga ega bo'ladi;
3. Innovatsion faoliyatning rivojlanishi. Katta moliyaviy salohiyat va yangi texnologiyalarni joriy etishga imkoniyat yaratiladi;
4. Korporativ boshqaruv madaniyatining o'sishi. Strategik qarorlar qabul etishda shaffoflik va javobgarlik prinsiplarining kuchayishi.

Chunonchi, biznes birlashuvi investitsion muhitga faqat iqtisodiy emas, balki psixologik va institutsional ta'sir ham ko'rsatadi. Birlashgan korxonalar faoliyatidagi shaffof hisobot, barqaror foydalilik va xalqaro auditorlik standartlariga mos amaliy faoliyat investorlar ongida ishonch uyg'otadi. Bu holat tashqi investitsiya oqimining oshishiga, ichki sarmoyadorlar faolligining kuchayishiga va umumiy iqtisodiy faoliyatning jonlanishiga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, biznes birlashuvi jarayonlarini samarali amalga oshirish quyidagi yo'nalishlarda investitsion muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaymiz:

- kapitalning samarali taqsimlanishi va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi;
- kompaniyalar o'rtasidagi raqobatni optimal darajaga keltiradi;
- xalqaro kapital bozorlari bilan integratsiya jarayonlarini tezlashtiradi;
- mamlakatning kredit reytingini va moliyaviy barqarorlik darajasini yaxshilaydi.

Biznes birlashuvi natijasida yuzaga kelgan yirik va barqaror korxonalar nafaqat milliy iqtisodiyot, balki mintaqaviy va xalqaro bozorlar uchun ham muhim investor sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa mamlakatning umumiy investitsion jozibadorligini oshirish, chet el sarmoyalarini jalb etish hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Biznes birlashuvi investitsion muhitni shakllantirishda ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi:

- Iqtisodiy ta'sir — moliyaviy resurslar konsentratsiyasi, samaradorlik va faollikning oshishi orqali;
- Institutsional ta'sir — korporativ boshqaruv, hisobot va auditning shaffofligi orqali.

Shu bois, O'zbekistonda biznes birlashuvlari amaliyotini kengaytirish, xalqaro hisobot standartlarini to'liq joriy etish va konsolidatsiya jarayonlarini qonunchilikda aniq tartibga solish mamlakat investitsion salohiyatini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Qo'shib yuborish jarayoni xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy, tashkiliy va iqtisodiy resurslarini birlashtirish orqali samaradorlikka erishishni ta'minlovchi muhim qayta tashkil etish shakli hisoblanadi. Bu jarayon natijasida bir yoki bir nechta korxona o'z faoliyatini tugatib, barcha huquq va majburiyatlarini qabul qiluvchi korxonaga o'tkazadi. Qo'shib yuborish iqtisodiy tizimdagi kapital konsentratsiyasini ta'minlaydi, moliyaviy barqarorlikni kuchaytiradi va resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida bu jarayonning iqtisodiy va moliyaviy mazmuni "biznes birlashuvi" sifatida ifoda etilgan. MHXS 3 "Biznes birlashuvlari", MHXS 10 "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot" va BHXS 27 "Alohida moliyaviy hisobotlar" standartlarida qo'shib yuborish jarayonlarining tartibi, hisobda tan olish mezonlari, baholash usullari hamda hisobotni shakllantirish qoidalari aniq belgilab qo'yilgan.

Ushbu standartlarga ko'ra, qo'shib yuborish jarayonlarini hisobda aks ettirishda xarid usuli qo'llaniladi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, avvalo qo'shib oluvchi korxona aniqlanadi, qo'shib yuborilayotgan korxonalarning barcha aktiv va majburiyatlari adolatli qiymat asosida baholanadi va farq natijasida yuzaga kelgan gudvill yoki xariddan kelgan foyda hisobda tan olinadi. Bu amaliyot moliyaviy hisobotda har bir aktiv va majburiyatning haqiqiy bozor qiymatini ifoda etish imkonini beradi hamda investorlar uchun ishonchli axborot manbaiga aylanadi.

Tugatilayotgan korxonalarda hisobni yuritish va faoliyatni yakunlash jarayonida avval tugatish to'g'risida qaror qabul qilinib, ta'sis hujjatlari asosida maxsus tugatish komissiyasi tuziladi. Komissiya buxgalteriya hisobini yakunlash, aktiv va majburiyatlarni baholash, tugatish balansini shakllantirish uchun mas'ul bo'ladi. Barcha hisob obyektlari — moddiy va nomoddiy aktivlar, qarzdorlik va majburiyatlar, daromad va xarajalar — adolatli qiymat bo'yicha qayta baholanadi va bu natijalar tugatish balansida aks ettiriladi. Qo'shib yuborish jarayonida barcha mulk, mablag'lar va majburiyatlar qabul qiluvchi korxonaga o'tkaziladi. Hisob yozuvlarida bu quyidagicha aks ettirilishi lozim (2-jadval):

2-jadval. Qo'shib yuborish jarayonida buxgalteriya yozuvlari va taklif etilgan schyotlar³

№	Operatsiya mazmuni	Debet	Kredit
1	Asosiy vositalarni qayta baholash (agar qiymat oshsa)	0110–0199 “Asosiy vositalar”	8530 “Qayta baholash natijasi”
2	Asosiy vositalar qiymati pasayganda	9430 “Boshqa operatsion xarajatlar”	0110–0190 “Asosiy vositalar”
3	Debitor qarzdorlik undiriladi	5110 “Hisob-kitob schyoti”	4010-4990 “Debitorlik qarzdorliklar”
4	Kreditorlik qarzdorliklar to'lanadi	6010–6990 “Kreditor qarzdorliklar”	5110 “Hisob-kitob schyoti”
5	Aktivlar qo'shib oluvchi korxonaga o'tkaziladi	9410-“Sotish xarajatlari”	0110–0190, 1010–1090, 2010 2990
6	Majburiyatlar qo'shib oluvchi korxonaga o'tkaziladi	6010–6990 “Kreditorlik qarzdorliklar”	9410 “Sotish xarajatlari”
7	Tugatish natijasi aniqlanadi	8510-“Tugatish natijalari”	8700-“Taqsimlanmagan foyda”
8	Qo'shib olingan asosiy vositalar kirim qilindi	0110–0190 “Asosiy vositalar”	8531 “Qo'shib olingan aktivlar”
9	Qabul qilingan pul mablag'lari kirim qilindi	5010–5590 “Pul mablag'lari”	8531 “Qo'shib olingan aktivlar”
10	Qabul qilingan zaxiralar kirim qilindi	1010–2990 “Zaxiralar”	8531 “Qo'shib olingan aktivlar”
11	Qabul qilingan debitor qarzdorliklar kirim qilinadi	4010-4990 “Debitor qarzarlar”	8531 “Qo'shib olingan aktivlar”
12	Qabul qilingan majburiyatlar tan olinadi	8532-“Qabul qilingan majburiyatlar”	6010–6990 “Kreditor qarzdorliklar”
13	Aktiv va majburiyatlar farqi(natija) aniqlanadi	8531 yoki 8532	8533 “Qayta tashkil etish natijasi”
14	Qayta tashkil etish natijasi kapitalga o'tkazildi	8533-“Qayta tashkil etish natijasi”	8700 “Taqsimlanmagan foyda”

Shundan so'ng, tugatish balansi tuziladi. Unda aktivlarning haqiqiy bozor qiymati, majburiyatlarning qoldiq summasi, taqsimlanmagan foyda yoki zarar hamda tugatish natijalari aks ettiriladi. Qayta tashkil etish va qo'shib olish jarayonlarini hisobda to'g'ri va shaffof aks ettirish maqsadida amaldagi 8530-“Tekinga olingan mulk” schyoti ichida qo'shimcha analitik schyotlarni joriy etish maqsadga muvofiq deb hisobladik. Biz tomonimizdan taklif etilayotgan yangi schyotlar — 8531-“Qo'shib olingan aktivlar”, 8532-“Qabul qilingan majburiyatlar” va 8533-“Qayta tashkil etish natijasi” — hisobni aniqlash, tadqiqni soddalashtirish hamda qo'shib olish natijasini ilmiy asosda ko'rsatish imkonini beradi.

8531-“Qo'shib olingan aktivlar” schyoti qo'shib oluvchi korxona tomonidan boshqa subyektdan qabul qilingan aktivlarni adolatli qiymatda kirim etish uchun mo'ljallangan. Ushbu schyot yordamida qabul qilingan asosiy vositalar, pul mablag'lari, tovar-moddiy zaxiralar, debitor qarzdorliklar va boshqa aktivlar turlari bo'yicha aniq hisob yuritish ta'minlanadi. Bu BXMS №23 “Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish” standartida belgilangan aktivlarni tan olish tamoyiliga mos keladi.

8532-“Qabul qilingan majburiyatlar” schyoti esa qo'shib oluvchi korxona tomonidan qabul qilingan barcha qarzdorlik va majburiyatlarni hisobga olish uchun joriy etiladi. U orqali kreditor qarzdorliklar, soliq va boshqa majburiyatlar bo'yicha hisob aniq va tizimli yuritiladi. Bu BXMS №21 “Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha” talablariga to'liq muvofiq bo'lib, hisobotning shaffofligi va ishonchligini ta'minlaydi.

Shuningdek, 8533-“Qayta tashkil etish natijasi” schyoti qo'shib olish jarayoni natijasida aktiv va passivlar o'rtasida yuzaga kelgan farqni hisobga olish uchun xizmat qiladi. Bu farq qo'shib olingan biznesning umumiy iqtisodiy samaradorligini ifoda etadi. Agar aktivlar qiymati majburiyatlardan ortiq bo'lsa, farq foyda sifatida, aks holda esa zarar sifatida hisobda aks ettiriladi. Bu yondashuv xalqaro standartlar, xususan MHXS 3 “Biznes birlashuvlari” va BXMS №23 talablariga javob beradi.

Umuman olganda, mazkur schyotlarni joriy etish qayta tashkil etish jarayonlarini hisobda to'g'ri aks ettirish, tadqiqiy hisobni chuqurlashtirish va moliyaviy hisobotning ishonchligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali qo'shib olish natijasida qabul qilingan aktivlar, majburiyatlar va natijaviy farqlar aniq tasniflanadi hamda korxonaning moliyaviy holati haqida to'liq va ravshan axborot taqdim etiladi. Qabul qiluvchi korxona o'z hisobida qo'shib yuborilgan korxonalarning barcha aktiv va majburiyatlarini tan oladi. Bu jarayonda aktivlar

3 Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi



va majburiyatlar adolatli qiymatda baholanadi, gudvill yoki xariddan kelgan foyda hisoblanadi. Agar gudvill yuzaga kelsa, u keyingi hisob davrlarida taqsimlangan foyda orqali kamaytirilishi mumkin yoki aktivlarning baholangan qiymati to'langan mablag'dan yuqori bo'lsa, farq "sotib olishdan kelgan foyda" sifatida hisobda aks ettiriladi. Birlashuv natijasida guruh tashkil etilgan taqdirda, hisobot MHXS 10 talablariga muvofiq konsolidatsiya qilingan moliyaviy hisobot shaklida tayyorlanadi. Bu hisobotda barcha korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari birlashtiriladi, ichki hisob-kitoblar tugatiladi va yagona moliyaviy holat ifoda etiladi.

O'zbekiston amaliyotida 23-son BHMS ushbu jarayonning umumiy tartiblarini belgilaydi. Biroq amaliyotda hisob yozuvlarini to'g'ri yuritish, baholash usullarini tanlash va hujjatlar shaklini aniqlashda bir xillik yetishmaydi. Natijada ayrim hollarda bir xil mazmunga ega xo'jalik operatsiyalari turlicha hisobda aks ettiriladi. Shu sababli milliy standartlarni xalqaro talablarga uyg'unlashtirish, qo'shib yuborish jarayonida tuziladigan hujjatlar tizimini standartlashtirish va buxgalterlar uchun uslubiy qo'llanmalar yaratish dolzarb ahamiyatga ega.

Xalqaro standartlarga mos hisob siyosatini shakllantirish hamda tugatish va taqsimlash balanslarining yagona namunasi asosida ishlash hisobot sifatini yaxshilaydi, tadqiq uchun ishonchli ma'lumot manbaini yaratadi. Shuningdek, korxonalar faoliyatini qo'shib yuborish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish korporativ boshqaruvni takomillashtiradi va iqtisodiy faoliyatning barqarorligini ta'minlaydi. Qo'shib yuborish jarayoni faqat moliyaviy natija bilan cheklanmay, iqtisodiy tizimdagi qayta taqsimlash jarayonlarini tezlashtiradi, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi va investitsion muhitni yaxshilaydi. Bu jarayonda hisob ma'lumotlarining ishonchligi va haqqoniyligi strategik boshqaruv qarorlarini qabul etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, qo'shib yuborilayotgan korxonalar faoliyatini tugatish jarayonlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va hisobda aks ettirish nafaqat buxgalteriya sohasi uchun, balki mamlakat iqtisodiyotidagi korporativ islohotlarning samaradorligi uchun ham muhim mezon hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi asosiy vazifalar xalqaro standartlarga uyg'un hisob siyosatini yaratish, raqamli hisob tizimlarini joriy etish, buxgalter kadrlarning malakasini oshirish va hisobot axborotlarining shaffofligini ta'minlashdan iborat.

Shu tariqa, korxonalarni qo'shib yuborish va qo'shib olish jarayonlari O'zbekiston iqtisodiyotida raqobatni kuchaytiruvchi, investitsion muhitni yaxshilovchi va iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi asosiy vositaga aylanib bormoqda. Xalqaro miqyosdagi ushbu ma'lumotlar qo'shib yuborilayotgan va qo'shib olinayotgan korxonalarning hisob va hisobot tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish, gudvill va xariddan kelgan foydani hisobda aks ettirish mexanizmlarini ilmiy asoslash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi⁴. Qo'shib yuborilayotgan korxonalar faoliyatini tugatish jarayonlarini xalqaro standartlar asosida hisob va hisobotda aks ettirish tizimini takomillashtirish milliy iqtisodiyotdagi moliyaviy boshqaruvni ilmiy asoslash, hisobotlarning xalqaro darajada tan olinishini ta'minlash va korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Gudvill va xariddan kelgan foyda tushunchalari bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarni qayta tashkil etish va biznes birlashuvi jarayonlarining muhim iqtisodiy kategoriyalari hisoblanadi. Ularning mohiyati korxonalarning bozor qiymatini to'g'ri baholash, moliyaviy samaradorlikni aniqlash va investorlar uchun ishonchli axborot yaratishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda amal qilayotgan buxgalteriya hisobining milliy standartlarida gudvill va xariddan kelgan foyda masalalari to'liq yoritilmagan, ularni hisobda aks ettirish va baholashning yagona uslubiy asoslari mavjud emas. Bu esa moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mos kelmasligi va ma'lumotlarning haqqoniyligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan tadqiqot natijalari asosida biz tomonimizdan quyidagi xulosalar va takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, milliy buxgalteriya standartlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bilan uyg'unlashtirish zarurati mavjud. Xalqaro standartlar gudvill va xariddan kelgan foydani hisobga olish, baholash va hisobotda aks ettirishning aniq tartiblarini belgilab beradi. Bu korxonalar hisobotlarini jahon amaliyotidagi yagona mezonlar asosida solishtirish imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, xalqaro standartlarga o'tish orqali moliyaviy hisobotning shaffofligi va ishonchligi ta'minlanadi. Bu, o'z navbatida, mahalliy va xorijiy investorlar uchun axborot muhitining ochiqqligini ta'minlaydi hamda ularning investitsiya qarorlarini qabul etishdagi ishonchini oshiradi.

Uchinchidan, MHXS tizimida aktivlar va majburiyatlar adolatli qiymatda baholanadi, bu esa moliyaviy natijalarning haqiqiy iqtisodiy mazmuniga mos kelishiga yordam beradi. Milliy standartlarda esa bunday mexanizm yetarlicha yo'lga qo'yilmagan bo'lib, bu holat aktivlar qiymatining sun'iy past yoki yuqori baholanishiga sabab bo'lmoqda.

To'rtinchidan, xalqaro standartlarga asoslangan hisobot tizimi orqali mamlakatning investitsion jozibadorligi oshadi. Chunki xalqaro standartlarga mos hisobot yurituvchi korxonalar xorijiy sarmoyadorlar uchun ishonchli hisoblanadi va global bozorda teng raqobat sharoitida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

⁴ McKinsey & Company (2025), Boston Consulting Group (BCG, 2025), IMAA Institute ma'lumotlari asosida tuzildi.



Beshinchidan, gudvill va xariddan kelgan foydani to'g'ri hisobga olish va baholash milliy iqtisodiyotdagi korxonalarning haqiqiy qiymatini aniq ko'rsatish imkonini yaratadi. Bu nafaqat moliyaviy hisobot sifatini oshiradi, balki mamlakat iqtisodiy islohotlarining samaradorligini baholashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro standartlarga o'tish nafaqat buxgalteriya hisobini ilmiy-nazariy jihatdan takomillashtiradi, balki amaliyotda hisobotning aniqligi, ishonchligi va shaffofligini ta'minlaydi. Shu asosda gudvill va xariddan kelgan foyda hisobini milliy amaliyotga joriy etish, ularning baholash, hisob va hisobotda aks ettirish mexanizmlarini ishlab chiqish mamlakatimizda moliyaviy hisob tizimini xalqaro andozalar darajasiga olib chiqishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, amaldagi tahrir. <https://lex.uz/mact/-111189>
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-son Qonuni. <https://lex.uz/acts/-2931253>
3. O'zbekiston Respublikasining 25.02.2021 yildagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5307886>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4746047>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4966554>
6. Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари (БХМС). – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, амалдаги таҳрири.
7. БХМС 23-сон «Қайта ташкил этишни амалга оширишда молиявий ҳисоботни шакллантириш». – Тошкент, 2005 й.
8. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МХХС). – Лондон: IFRS Foundation, амалдаги таҳрир.
9. МХХС 3 «Бизнес бирлашувлари». – IFRS Foundation.
10. МХХС 10 «Консолидацияланган молиявий ҳисобот». – IFRS Foundation.
11. МХХС (IAS) 36 «Активларнинг қадрсизланиши». – IFRS Foundation.
12. МХХС (IAS) 38 «Номоддий активлар». – IFRS Foundation.
13. МХХС 13 «Адолатли қийматни аниқлаш». – IFRS Foundation.
14. Хендриксен Э.С., Ван Бреда М.Ф. Теория бухгалтерского учета. – Москва: Финансы и статистика, 2014.
15. Палий В.Ф. Бухгалтерский учет и отчетность. – Москва: ИНФРА-М, 2019.
16. Соколов Я.В. Бухгалтерский учет: от истоков до наших дней. – Москва: Аудит, ЮНИТИ, 2018.
17. Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учета. – Москва: Финансы и статистика, 2017.
18. Ивашкевич В.Б. Международные стандарты финансовой отчетности. – Москва: Юрайт, 2020.
19. Абдурасулов Ж.А. Корхоналарни қайта ташкил этиш жараёнларини бухгалтерия ҳисобида акс эттириш масалалари // Иқтисод ва молия. – Самарқанд, 2024.
20. OECD. Corporate Governance and Enterprise Restructuring. – Paris: OECD Publishing, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
